

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>

NATURAL GEOGRAPHICAL LOCATION AND TOURISTIC POTENTIAL OF PISKENT DISTRICT

Shakhnoza Gayratovna Shomurodova

PhD

Chirchik State Pedagogical University

Chirchik, Uzbekistan

Nazar G. Nazarov

PhD

Chirchik State Pedagogical University

Chirchik, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: plain, terrain, altitude, region, climate, waters, minerals, soil, flora, tourism.

Received: 27.01.24

Accepted: 29.01.24

Published: 31.01.24

Abstract: The article covers the natural geographical location, climate, waters and plants of Piskent district. Also, the touristic potential of Piskent district and places of pilgrimage are described in detail.

PISKENT TUMANINING TABIIY GEOGRAFIK O'RNI VA TURISTIK SALOHIYATI

Shahnoza G'ayratovna Shomurodova

PhD

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Chirchiq, O'zbekiston

Nazar G'. Nazarov

PhD

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Chirchiq, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tekislik, relyef, balandlik mintaqa, iqlim, suvlari, foydali qazilmalar, tuproqlari, o'simlik dunyosi, turizm.

Annotatsiya: Maqlada Piskent tumanining tabiiy geografik o'rni, iqlimi, suvlari va o'simliklar haqida fikrlar yoritilgan. Shuningdek, Piskent tumanining turistik salohiyati va ziyoratgohlari haqida keng bayon qilingan.

ПРИРОДНО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ И ТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ПИСКЕНТСКОГО РАЙОНА

Шахноза Гайратовна Шомуродова

PhD

Чирчикский государственный педагогический университет

Чирчик, Узбекистан

Назар Г. Назаров

PhD

Чирчикский государственный педагогический университет

Чирчик, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: равнина, местность, высота, регион, климат, воды, полезные ископаемые, почва, флора, туризм.

Аннотация: В статье рассмотрены природно-географическое положение, климат, воды и растительность Пискентского района. Также подробно описан туристический потенциал Пискентского района и места паломничества.


KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimiz turizm sohasini rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlarga ega davlat hisoblanadi. Chunki, mamlakatimizda 7 mingdan ziyod tarixiy obidalar va ulkan tabiiy turistik obyektlar mavjud. Jumladan, Piskent tumanida rekreatsion-turizmni rivojlantirish, shuningdek, turistik zonalar hamda tog' turizmi markazlarini tashkil etish, mehmon uylari faoliyatini yaxshilash va rivojlantirishning tabiiy geografik asoslarini ishlab chiqarish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Piskent tumani - Toshkent viloyatidagi tuman [1-rasmga qarang]. U 1926 yil 29 sentabrda tashkil etilgan. Shimol va shimoli - sharqdan Ohangaron va O'rta Chirchiq, g'arbdan - Oqqo'rg'on, janubi - g'arbdan Bo'ka tumanlari, janubdan-Tojikiston Respublikasining Sug'd viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 0,79 ming km².

Piskent tumanida 1 ta shahar (Piskent), 6 ta qishloq fuqarolari yig'ini (Do'ngyo'rg'on, Kerovchi, Murotali, Koriz, Oqtepa, Sayd) bor. Tuman markazi - Piskent shahri [1].



1-rasm. Piskent tumanining kartasi.

Tabiat. Tuman hududi Qurama tog‘ tizmalarining etaklarida va Ohangaron daryosining chap sohilida, Chirchiq Ohangaron vodiysi boshlanadigan yerda joylashgan. Yer usti sharqdan g‘arbgan tomon qiya. O‘rtacha balandligi 300-2500 m. Sharqiy qismi Qurama tog‘lari, adirlar, cho‘l, yaylovlar bilan o‘ralgan.

Relyefi bir oz past-baland, eski daryo o‘zanlari, jar qismida sug‘oriladigan va jilg‘alar bilan parchalangan. Tumanning g‘arbiy qismida dehqonchilik uchun yerlar joylashgan.

Tuproqlari, asosan, tipik bo‘z tuproqlar, pastqam joylarda o‘tloqi, botqoq-o‘tloqi, allyuvial tuproqlar. Tumanning chekka sharqida to‘q bo‘z tuproqlar va qo‘ng‘ir tuproqlar tarqalgan bo‘lib, bu yerlardan yaylov sifatida foydalaniladi.

Suvlari. Qurama tog‘idan Ohangaron daryosi oqib tushadi, tog‘ soylaridan Qizota, Kovuldi, Olmaliqsoy, Parganda, Qoraqiyosoy oqib o‘tadi. Anhor, Bo‘ka, Sho‘r, O‘rtaariq, Bo‘rjar singari qadimiy kanallar va Shimoliy Toshkent kanali bor. Shimoliy chegarasi bo‘ylab Toshkent suv ombori (Toshkent dengizi) joylashgan.

Iqlimi. Mo‘tadil issiq, quruq. Yillik o‘rtacha harorat 13,5°C, iyulning o‘rtacha harorati 27°C, eng yuqori harorat 41°C, yanvarniki -1,0°C, eng past harorati - 27,2°C. Vegetatsiya davri 210-220 kun. Yillik yog‘in miqdori 350 mm.

O'simliklari. Yovvoyi o'simliklardan tekisliklarda qamish, dashtda shuvoq-sho'ra, tog' oldi yerlarida bo'tako'z va soylarning vodiylarida archa, do'lana, zarang, olcha, olma, chetan va boshqa o'simliklar o'sadi [3].

Yovvoyi hayvonlardan daryo qayirlarida bo'ri, chiyabo'ri, yumronqoziq, quyon, to'qay mushugi, o'rdak, g'oz, qirgovul, tog'larda kaklik, bedana, mayna, loyxo'rak, suvilonlar, ondatra yashaydi.

Foydali qazilmalar. Tumanning sharqiy qismida foydali qazilmalardan mis, qo'rg'oshin, rux, oltin, molibden va boshqa nodir metall rudalari, flyuorit, ohaktosh, shag'al, qum va boshqa turli xil qurilish materiallari olinadi.

Aholisi. Asosan, o'zbeklar, shuningdek, tojik, tatar, rus va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholining o'rtacha zichligi 1 km² ga 109,2 kishi to'g'ri keladi.

Qishloq xo'jaligi. Xo'jaligi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Sanoat, transport, aloqa, qurilish korxonalari bor. Aholisi shirkat va dehqon-fermer xo'jaliklari paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik, chorvachilik bilan shug'ullanadi. Tumanda 66 ta davlat, 1243 ta nodavlat korxonasi, 1 ta qo'shma korxona, 10 ta aksiyadorlik jamiyat, 2 ta jamoa, 8 ta shirkat xo'jaligi, 970 ta fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatadi.

Tumanning sugariladigan ekin maydoni 20,7 ming hektar, shu jumladan, 10 ming hektar yerga paxta, 8,4 ming hektar yerga don, 420 hektar yerga poliz va sabzavot ekinlari ekiladi. Piskent tumanidagi 43 ta umumiyligi ta'lim məktəbində 20,2 ming yaqin o'quvchi ta'lim oladi. Undan tashqari internat - məktəbi, kasbhunar kolleji, 8 ta klub, 22 ta kutubxona, madaniyat va istirohat bog'i, 8 ta stadion mavjud.

Turistik salohiyati. Hozir mamlakatimizning boshqa hududlarida bo'lgani kabi Piskentda ham sayyoohlarni jalb qilish, ziyorat, qishloq xo'jaligi turizmini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Joylarda tashkil etilayotgan mehmon uylariga kirgan kishining taassuroti ortadi.

Piskent tumani o'ziga xos tabiatini, so'lim maskanlari bilan ajralib turadi. Tumandagi ziyoratgohlardan eng ko'p turistlarni jalb qiladigani Qiriqqiz ziyoratgohidir [2-rasmga qarang].

1-rasm. Piskent tumanidagi Qiriqqiz ziyoratgohi.



Qirqqiz ziyyaratgohi 2019-yil 4-oktyabrdan moddiy - madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan - davlat muhofazasiga olingan joydir.

Qirqqiz ziyyaratgohi o‘rta asrlarda mashhur bo‘lgan Ko‘lota tarixiy joy hisoblanadi. Bu yerda jami 40 ta buloq bo‘lib, hozir 12 ta buloq suvidan ziyyoratchilar foydalanadi. Hozir bu yerda daryoning qurishi natijasida hosil bo‘lgan qirqta irmoq (buloq) mavjud. Aytishlaricha, ular qirqta qizning ko‘z yozlari natijasida paydo bo‘lgan. Mahalliy aholining ta’kidlashicha, bu yerning buloq suvini ichish uchun mamlakatning turli hududlaridan ziyyoratchilar keladi. “Qirqqiz” forscha “Childuxtaron” nomli joylar O‘rta Osiyoda ham ko‘plab uchraydi.

Ziyyaratgoh o‘ziga xos, ko‘rkam tabiat yodgorligi ham hisoblanadi. Sayyoohlар bu yerga kelsa shu yerlik mahalliy aholidan tarixiy yodgorlik bilan bog‘liq ma’lumotlarni tinglaydi. Katta-katta toshlar ostidan otlib chiquvchi shifobaxsh va zilol buloqlar suvi esa xalq orasida shifobaxshligi bilan ancha mashhur. Shu tufayli ziyyoratchilar bu yerning tabiatidan baha olish bilan birga, buloq suvidan ichadi [2].

Tumandagi mavjud buloqlar yoki chashmalar yer osti suvlarining tabiiy holatda yer yuzasiga quruqlikda yoki suv ostida chiqishi hisoblanadi.

Buloqlar suvli qatlamlarni daryo vodiylari, jarliklar, ko‘l cho‘kmalari kesib o‘tishidan, tektonik yoriqlar, otqindi va cho‘kindi jinslar mavjudligidan, suvli jinslar filtratsiya xossasining bir xil emasligidan paydo bo‘ladi. Yerning bir necha qatlamini bosib, sizib chiqayotgan suv o‘z-o‘zidan ma’dan va minerallarni yuvib, o‘zi bilan yer ustiga ularni olib chiqadi. Bu esa teri kasalliklari bilan muammosi bor bemorlarga suv iste’moli yoki suv bilan yuvinish ijobiy ta’sir qiladi. Inson organizmining mis, oltingugurt, oltin va boshqa ma’danlarga nisbatan ehtiyojini qondiradi.

Tumanda mavjud turistik imkoniyatlarni yanada targ‘ib etish yuzasidan bir qancha takliflarni berib o‘tamiz:

- zamonaviy turizm imkoniyatlari o‘sib borayotgan bir davrda raqobatga bardosh beruvchi tizimni ishlab chiqish;
- mobil ilovalari va reklama targ‘ib etuvchi xususiy tashkilotlarni ko‘paytirish;
- tabiat bergen ne’matlarni asrash va kelajak avlod ulardan bahramand bo‘lishlari uchun ekologik madaniyatni kuchaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- dunyo mamlakatlari xalqlariga boy madaniy meros va ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolgan mahalliy urf-odatlar bilan yaqindan tanishish imkoniyatlarini kengaytirish.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Qirqqiz ziyyaratgohi, xususan, Piskent tumani o‘zining serunum tuprog‘i, boy madaniy merosi, milliy birligi va o‘ziga xos etnik turfa xilligi bilan ajralib turadi. Qirqqiz ziyyaratgohi buloqlarning mineral tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari bilan

ham farqlanadi. Buloqlar asosan ziyorat maskanlari hududida joylashgan bo‘lib, asosan mahalliy va xorijiy tashrif buyuruvchilar tomonidan e’zozlanadi.

Turistlar tomonidan mavsumiy tashriflar yil davomida amalga oshiriladi. Mahalliy aholining shifobaxsh buлоqlar bilan bog‘liq rivoyatlardagi mahalliy etnik xalqning suvga bo‘lgan ehtiyoji hamda qadimdan aholining dehqonchilik madaniyati, o‘troq turmush madaniyati shakllanib borganligidan dalolat beradi. O‘z navbatida islam dini kirib kelmasidan oldin suv bilan bog‘liq mahalliy suvning muqaddas manbalardan biri ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, buлоqlarning bemorlarni turli xil kasallikkardan xolos eta olish xususiyati to‘g‘risida rivoyat va afsonalar mahalliy aholi orasida keng tarqalgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi.
2. Sh.G‘.Shomurodova, I.B.Sharofutdinov “Measures for Further Development of Tourism Authority Organized in Tashkent Region”. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. New York.: 2023- pp.135.
3. Sh.G‘.Shomurodova, D.Sh.Jumaniyozova, S.Jumaniyozova “Medicine Tourism And Their Beneficial Properties In The Mountain Clusters Of Chorvoq Free Tourist Zone”. Journal of Survey in Fisheries Sciences. 2023. pp.1783.